

PAPER

## “YO‘QCHILIK VA TO‘QCHILIK” ASARI TARJIMASIDA TUSHIRIB QOLDIRILGAN STRATEGIYA TAHLILI

Safarova Marjona Akmal qizi <sup>1,\*</sup>

<sup>1</sup>ToshDO‘TAU Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik 1-kurs magistranti

\* safarova@gmail.com

### Abstract

Xemingueyning asarlari nafaqat G‘arb balki Sharq olamida ham juda mashhur. Bu maqolada aynan “Yo‘qchilik va to‘qchilik” asaridagi manba tili va tarjima tilini taqqoslanadi, tarjimonning badiiy bo‘yoqlardan qay darajada foydalanishini tahlil qilinadi. Maqolada Xemingueyning manba tilidagi “To Have and Have Not” tarjima tilidagi “To‘qchilik va yo‘qchilik” asarining birinchi bobdagi lingvistik izlanishlari natijasi bayon etiladi. Ushbu maqola aynan tarjimon asl matn mazmunini yetkazib berish uchun qanday tarjima strategiyalar va usullaridan foydalanganligi sharhlanadi. Tarjimada uchragan ayrim kamchiliklar uchun muqobil variantlar taklif qilinadi.

**Key words:** ijodiy tarjima, tushurib qoldirilgan birliklar, ekvivalent tarjima, tarjimon mahorati.

### KIRISH

Zamonaviy tarjimashunoslikda matnning maqsadli auditoriyaga to‘g‘ri va to‘liq yetkazilishi muhim ahamiyatga ega. Bunda tarjimonning mahorati, til bilish, madaniy va lingvistik kompetensiyasi asosiy rol o‘ynaydi. Tarjima jarayonida turli xil usullar va strategiyalar qo‘llaniladi, ularning har biri muayyan maqsad uchun xizmat qiladi. Ushbu maqola Ernest Xemingueyning “Yo‘qchilik va to‘qchilik” asari, uning o‘zbek tilidagi tarjimasida qo‘llangan tarjima strategiyalaridan biri – tushirib qoldirish (omission) usulining lingvistik tahliliga bag‘ishlangan.

Qandilal Yusupova tomonidan amalga oshirilgan ushbu tarjima, o‘zbek kitobxonlari uchun Xemingueyning ijodiy uslubi va asar mohiyatini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada tarjimonning o‘ziga xos yondashuvi, uning asarni o‘zbek tiliga moslashtirishdagi mahorati, shuningdek, tushirib qoldirish usulining qo‘llanilishi natijasida yuzaga kelgan ijobiy va salbiy jihatlar ko‘rib chiqiladi. Biz tarjimon tomonidan matndagi birliklarning tushirib qoldirilishi asl matnning ma‘nosiga qanchalik ta‘sir qilganini, bu usulning o‘zbek kitobxonlari uchun matnni tushunishni osonlashtirgan yoki qiyinlashtirganini aniqlashga harakat qilamiz. Shuningdek, tushirib qoldirishning o‘rinli va o‘rinsiz holatlari, muqobil tarjima variantlari ham tahlil qilinadi.

### METODOLOGIYA

O‘zbek va ingliz adabiyoti namunalaridan bu ikki asarni tahlil qilish mobaynida turli xil tarjima usullariga murojaat qilinadi. Asar davomida ko‘plab ijodiy, ekvivalentlik kabi tarjima usullari va bir qancha tushurib qoldirilgan birliklar e‘tiborni tortmay qolmaydi. Shu sababli ham maqolani qiyoslash davomida asosiy urg‘u ijodiy va ekvivalent tarjima hamda tushurib qoldirilgan tarjima usullari asosida yoritib beriladi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi asosiy elementlarni o‘z ichiga oladi

1. Tarjima uslublarini identifikatsiyalash: Matnlarni diqqat bilan o‘rganish orqali tarjimon tomonidan qo‘llanilgan tarjima usullari, xususan, ijodiy tarjima, ekvivalent tarjima va tushirib qoldirish (omission) strategiyalari aniqlanadi.

2. Qiyosiy lingvistik tahlil: Aniqlangan tarjima usullari uslubiy jihatdan qiyosiy tahlil qilinadi. Asl matndagi birliklar va ularning tarjimalari o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar, ma‘no yo‘qotilishi yoki o‘zgarishi, uslubiy moslik darajasi baholanadi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

#### Ijodiy tarjima (creative translation)

Ijodiy tarjima bu tarjimon tomonidan tanlangan umumiy yondashuv yoki usul hisoblanib, bunda tarjimonning matnga bo‘lgan nuqtayi nazarini, maqsadini va tarjima jarayonida

qo'llaydigan tamoyillarini aks ettiradi. Asarning ilk bobida tarjimon bu usuldan juda ko'p foydalanligini ko'rsak bo'ladi. Misol uchun ingliz tilida berilgan oddiy:

**"They stood there looking sad"** o'zbek tiliga: **"Ular umidsiz ko'zlarini mo'ltillatgancha menga qarab turishardi"** tarzida tarjima qilingan. Bu vaziyatda, **"sad"** so'zi o'zbek tilida *xafa* degan ma'noni anglatadi, tarjimon ma'noni yanada kuchaytirish uchun **"umidsiz ko'zlarini mo'ltillatgancha"** so'z birikmasi bilan ifodalagan.

**"I am all for you"** esa o'zbek tilida **"jon deb yordam berardim"** tarzida tarjima qilingan. Lekin yuqoridagi manba tilida berilgan birikma aslida **"men sizlarni qo'llab-quvatlayman"** tarzida tarjima qilinishi lozim edi, biroq tarjimonning badiiy mahorati ma'noni chiroyli yetkazib berishga xizmat qilgan.

**"It could mean a great deal for you later"**, ushbu gap tog'ridan-tog'ri tarjima usulida **"bu siz uchun keyinchalik katta ahamiyatga ega bo'lishi mumkin"** tarzda aks ettirilishi kerak, ammo tarjimon **"bir kuningga yarab qolar"** deb o'zbeklashtirgan holda ijodiy tarjima usulidan foydalanishini ko'rsak bo'ladi.

**"They were good-looking young fellows, wore good clothes, none of them wore hats, and they looked like they had plenty of money. They talked plenty of money."** **"Good-looking"** so'zi o'zbek tilida **"chiroyli, kelishgan"** degan ma'noni anglatadi, tarjimon bu so'zni **"aft-angori durust"** deb o'g'irgan, **"good clothes"** so'zi esa **"yaxshi kiyimlar"** deb to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinsa, asarda **"po'rim kiyinib olgan"** birikmasi orqali ifodalangan. **"They had plenty of money"** gapi **"ularda ko'p pul bor edi"** degan ma'noni anglatadi, **"ular puldor odamlarga o'xshardi"** holatida tarjimada berilgan, shunchaki **"they talked plenty of money"** gapi esa **"ular hech narsadan tap tortmay, xizmat haqqim uchun bir dunyo pul va'da qilishdi-ya"** holatida tarjima qilingan, ammo to'g'ridan-to'g'ri tarjimada bu gap **"ular ko'p pul haqida gapirishdi"** degan ma'noni anglatadi.

**"Whole thing made me feel pretty bad"** gapi **butun voqea men o'zimni yomon his qilishimga sababchi bo'ldi**, deb tarjima qilinsa, ijodiy usul yordamida **"Bo'lib o'tgan ishlar, esxonamni chiqarib yubordi"** deb tarjima qilingan.

**"Said"** va **"told"** fe'llarini tarjima qilishda tarjimonning ijodiy mahorati.

Tarjimon Qandilat Yusupovanning badiiy mahoratini birgina **"said"** va **"tell"** ya'ni **"aytdi, dedi"** so'zini, asardagi vaziyatlardan kelib chiqib, turli xil holat ravishlaridan foydalanligini va bu badiiy bo'yqordorlikni kuchaytirganini ko'rsak bo'ladi. Keling, misollarni ko'rib chiqamiz.

**"He is necessary," I said-** *U muhim, dedim men-* tarzida to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinmasdan, **"U menga kerak"**, **-uzil-kesil dedim men** holatida kelganini ko'rsak bo'ladi. Bu vaziyatda, asar bosh qahramonidan o'zi bilan nega doim qayiqda habashni birga olib yurishini Jonson ismli mijoz so'raganda, tarjimon bosh qahramonga ham bu savol yoqmagani bildirish uchun **uzil-kesil** so'zi bilan holatni aniqlagan.

**"Well," I told him,** shunchaki, *xo'p, dedim men* deb tarjima qilinsa, tarjimon **"Xo'p, -deya yon bosdim unga** holatida badiylashtirilgan. Bu vaziyatda esa gap mijozning baliq tutish bilan bog'liq muammosi haqida ketayotgan edi. Mijoz Jonson shamol bo'lishi, oy noqulay tushishi kabi muammolar baliq tutishga xalaqit berishi to'g'risida yuqorida gapirgach, asar qahramoni ham bu sabab o'rinli ekanini tasdiqlaganini tarjimon yetkazib berish uchun **"deya yon bosdim men"** deb tarjima qilgan.

**"He hasn't got it,"** Jonhson **said**. Bu vaziyatda qayiq xo'jayini ya'ni asar bosh qahramoni mijoz Jonsonga baliqni tutish uchun qarmoqni bo'shashtirish buyrug'ini baqirib buyuradi, ammo bunga javoban Jonson, xuddiki o'zim bilaman degnadek, **"Hali, xo'rakka ilinmadi"**, **-xotirjam javob berdi Jonson** deb tarjimon vaziyatni yanada oydinlashtirgan. Biroq to'g'ridan-to'g'ri tarjima **hali ilinmadi**, **-dedi** Jonson deb berilishi lozim edi.

**"He has gone," said Johnson,** gapi o'zi u ketib qoldi, **- dedi**

Jonson deb tarjima qilinishi kerak, lekin asarda **"U ketib bo'ldi, - Jonsonning tarvuzi qo'ltig'idan tushdi"** holatida berilgan. Bu yerda shunchaki **said** ya'ni dedi, **aytdi** fe'liga holatni ifodalash uchun **"tarvuzi qo'ltig'idan tushdi"** iborasi qo'shilganini ko'rsak bo'ladi. Yuqoridagi vaziyatning davomi sifatida, Jonson asar qahramoni bergan yo'l-yo'riqqa quloq solmaydi va oxirida baliqni qo'ldan chiqaradi. Shu sabab, tarjimon ma'noni to'liqligicha yetkazish uchun iboraga murojaat qilgan.

### Ekvivalent tarjima (faithful translation)

**"To'qchilik va yo'qchilik"** asarini lingvistik tahlil qilish mobaynida tarjimonning ekvivalent tarjima mahorati e'tiborni tortmay qolmaydi. Tarjimon asar mazmunini to'liq o'zbeklashtirilgan holatda tarjima qilish uchun bir necha ekvivalent ibora birliklarini murojaat qilganini va bu asarning yanada ravon bo'lishiga hissa qo'shganini payqash qiyin emas. Hozir shu birliklarning bir nechasini ko'rib chiqamiz (Table 1).

### Tushirib qoldirilgan birliklar (omission)

Tarjima jarayonida uchrab turadigan holatlardan yana biri bu ba'zi birliklarni tushirib qoldirishi (omission) hisoblanadi. Bu kabi birliklar turli vaziyatlarda, asosan, hech qanday muhim rol o'ynamaganda yoki ma'lumot ortiqcha deb sanalganda tarjima jarayonida tushirib qoldiriladi. Ammo ba'zi o'rinlarda vaziyatni o'quvchiga aniq yetkazib berish uchun bu tarjima usulidan foydalanish tavsiya etilmaydi. Quyida ushbu tarjima usuliga bir qator misollarni tahlil qilib chiqamiz.

**"You mean we would talk?"** one of them who had not spoken said. **He was angry.**

**"Gapiradi deb bizni aytayapsanmi? - dedi boyadan beri sukut saqlab turgan daydilardan biri."**

Aslyat tilida berilgan **"He was angry"** gapi tarjimon tomonidan shunchaki tushirib qoldirilgan, lekin, menimcha bu gapni tushurmasdan **"qisqartirish"** ya'ni compression usulidan foydalanib, undan oldingi gap bilan birga qo'shib tarjima qilinganda ma'no to'liq yetkazilardi. Ya'ni: **"Gapiradi deb bizni aytayapsanmi? -dedi boyadan beri sukut saqlab turgan daydilardan biri g'azab bilan."** Shundagina o'quvchi gapirayotgan odam qanday holatda bo'lganini bila oladi.

Ikkinchi misol:

**"What is that? Threat?"**

O'zbek tilida tarjimon bu gapni shunchaki, **"Nima deganing bu?"** shaklida ifodalagan, bu faqatgina manba tilidagi birinchi gapga **"What is that?"** ma'nosiga to'g'ri keladi, lekin undan keyin yozuvchi tomonidan qo'llanilgan **"Threat?"**, ya'ni tahdid so'zi tushurilib qoldirilgan. Mening fikrimcha, **"Nima deganing bu? Tahdidmi qilyapsanmi?"** deb tarjima qilinishi maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki yuqorida vaziyat uch shaxsning sirini ochmaslik haqida ketayotgan edi.

Quyida keltirilgan misolda esa so'zning tushurib qoldirilishi hech qanday muhim rol o'ynamaganini ko'rsak bo'ladi. **"Well, we came across the square from the dock to the Pearl of San Francisco Café to get coffee and..."** Yuqoridagi gapda kelgan kirish so'z **well** o'zbek tiliga **xo'sh, demak, endi** tarzida tarjima qilinsa bo'lar edi, ammo bu kirish so'z hech qanday muhim rol kasb etmaganligi sabab, tarjimon uni shunchaki tushurib qoldirgan va quyidagicha tarjima qilgan: **"Biz bo'lsak, qahva ichish uchun dokdan maydon orqali "San-Fransisko marvaridi" qahvaxonasiga o'tib ketayotgandik..."**

### XULOSA

Bu maqola tarjimon Qandilat Yusupova tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan **"To'qchilik va yo'qchilik"** asarining lingvistik

Table 1

|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |                                                                                                                                                                                                                                                                                 |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| “Oh, hell,” I told him. “Don’t talk so much.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    | Jin ursin! – dedim unga. – Haddingdan oshma                                                                                                                                                                                                                                     |
| Bu yerda oh, hell ingliz xalqi tomonidan jahl yoki biror narsadan g’azablarga qo’llaniladigan birlik hisoblanadi va to’g’ridan-to’g’ri tarjimada do’zaxga deya tarjima qilinadi, don’t talk so much gapida esa ogohlantirish ya’ni sizga kimningdir gapi yoqmayotganda, u gapirishdan to’xtashini xohlaganingizda aytiladigan qo’pol ibora hisoblanadi va to’g’ridan-to’g’ri tarjimada ko’p gapirma degan ma’noni anglatadi. Tarjimon esa o’zbek tiliga tarjima qilayotganda o’zbeklar orasida jahl chiqqanda va yoqimsiz inson gapirishdan to’xtashini xohlaganimzda murojaat qiladigan frazeologik birliklardan foydalanганиni quyidagi gapda ko’rsak bo’ladi | “Jin ursin” – bu norozilik, jahldorlikni kuchaytiruvchi o’zbekona ibora. Bu ibora g’azabni ifodalash uchun ishlatiladi. “Haddingdan oshma” – bu ogohlantirish va chegarani bilishni talab qilishni ifodalovchi gap. Bu ogohlantirishga quloq solmagan odamga nisbatan aytiladi. |
| “-Do you suppose he was hit? - Hell, no.”                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       | “Nafasingni shamol uchirsin, yo’q”                                                                                                                                                                                                                                              |
| Berilgan gapda ham hell so’zining ekvivalent tarjimasini ko’rib chiqamiz. Vaziyat tushunarliroq bo’lishi uchun “-Do you suppose he was hit?” ya’ni “-Unga ham o’q tekkanmikan” gapini ma’no yaxshiroq anglanishi uchun keltirib o’tishni ma’qul deb topdim. Bu savol kimgadir zarar yetganmi yoki yo’qmi degan shubhani bildiradi. “Hell, no” esa Do’zaxga, yo’q! deb to’g’ridan-to’g’ri tarjima qilinadi va bu ibora qat’iy rad etishni, inkor etishni anglatadi shu bilan bir qatorda g’azabni, ishonchsizlikni yoki qat’iylilikni ifodalashi mumkin.                                                                                                         | Tarjima tilida qo’llanilgan ushbu iboraviy birlikdan yaqqol ko’rinib turibdiki, tarjimon manba hamda tarjima tilida ham yetarlicha bilim, ko’nikmalarga ega va ma’noni to’liq yetkazib berish uchun hech qanday qiyinchiliklarsiz ibora bilan ravon ifodalay olgan.             |
| “Eddy looked pretty bad”                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        | “Eddining holi ancha chatoq ko’rinardi”                                                                                                                                                                                                                                         |
| Ushbu gapda keltirilgan so’zlarni bittalab tahlil qilamiz va so’ngida tarjimon qanday ekvivalent ibora birligidan foydalanganligini ko’ramiz. Bu gapdagi looked so’zi tashqi ko’rinishga nisbatan ko’rinardi tarzida tarjima. “Pretty bad” esa juda yomon, ya’ni Eddyning holati, sog’lig’i, tashqi ko’rinishi yaxshi emasligini anglatadi. “Pretty” so’zi bu yerda “juda”, “anchagina” ma’nosida kelgan.                                                                                                                                                                                                                                                       | Tarjimon Qandilal Yusupova esa ijodiy mahorati sababli o’zbek tilida tashqi ko’rinishga nisbatan yomon degan ma’noni anglatuvchi iboradan samarali foydalanadi                                                                                                                  |

bu holat tarjimaga katta ta’sir ko’rsatmagan. Bundan tashqari, o’zbek iboralaridan ham samarali foydalanib, asarni o’quvchi tushunishi uchun yanada soddalashtirgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

- Gal’perin, I.R., 1981. Tekst kak ob’yekt lingvisticheskogo issledovaniya. Moskva: Nauka.
- Ernest Heminguey “To’qchilik va yo’qchilik”
- Ernest Hemingway “To have or have not”
- Yo’ldoshev, M., 2008. Badiiy matn lingvistikasi. Toshkent: Fan.
- <https://share.google/cfoAHbm6SY7vg42EBArxiv.uz> Lingvistik tahlil metodlari
- <https://share.google/DxLnOFSXbOUNr4emD> O’zbekiston Respublikasi Oliy Ta’lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi Buxoro Davlat Universiteti
- <https://share.google/RAlmoQEfrvCtDWelZ>

qiyoslanishi natijasida, tarjima usullarining uch turi ya’ni ijodiy tarjima, ekvivalent tarjima va tushurib qoldirish strategiyalariga misollarni tahlil qilib chiqdi. Tahlil jarayonida tarjimonning mahorati yaqqol ko’zga tashlanadi. Tarjimon tarjima usullaridan unumli foydalanib, ma’noni to’laqonli yetkazishga uringan. Asardagi ba’zi gaplar va so’zlar tushurib qoldirilgan, ammo